



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> February, 2025

## **TALABALARINI AXBOROT XAVFSIZLIGIGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI**

Mirzayev Tolibjon To‘raqul o‘g‘li

Buxoro viloyat hokimining raqamlashtirish bo‘yicha  
maslahatchisi (O‘zbekiston, Buxoro).

### **Rezyume**

Maqolada talabalarni axborot xavfsizligiga oid kompetensiylarini shakllantirishning metodik asoslari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, kompetentlilik, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot xavfsizligi.

Jamiyatning barcha sohalarida bo‘layotgani kabi ta’lim tizimida ham turli xil interfaol texnologiyalarning rivojlanishi va ularning inson faoliyatining barcha sohalariga tobora ortib borayotgan ta’siri tufayli sezilarli sifat o‘zgarishlari yuz bermoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqealarni hodisalar sodir bo‘moqda. Inson axborot ta’siridan holi xolda normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o‘rganish axborotlarni yig’ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Ta’limni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. Raqamli ta’lim texnologiyalar vositasida talabalarni axborot xavfsizligiga oid kompetyensiyalarini rivojlantirish vazifasi juda ahamiyatli bo‘lib qoldi.

Hozirgi vaqtida kompetensiya termini turli xil fanlarni o‘qitishga qo‘yilgan talablar hisoblanadi.

Kompetensiya – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

Kompetentlilik – (lotincha: competens – layoqatli, qobiliyati bor).



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> February, 2025

Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – talabalarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir.

Tayanch kompetensiyalar:

## **1. Kommunikativ kompetensiya**

- jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhabatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur(konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.

## **2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi**

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio(audio– video yozuv)telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
- media vositalaridan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatiga rioya qilish;
- ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> February, 2025

– kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish(oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish, mehmonxona ro‘yxatida o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

### **3. Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi**

- shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- hayot davomida o‘qib o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- o‘z xatti-harakatini advokat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;
- o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

### **4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**

- Jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);
- mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- kasbiy mavqeyining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.

### **5. Umummadaniy kompetensiyalar**

- vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
- badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
- orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish;
- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;



# E CONF SERIES



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

**Hosted online from Madrid, Spain**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

20<sup>th</sup> February, 2025

- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Fanlarni o’qitishda raqamli ta’lim texnologiyalar vositasida talabalarni axborot xavfsizligiga oid kompityensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ta’limda innovatsion texnologiyalar// Toshkent-2008 y.
2. Imamova Shafoat Mahmudovna. A SIMULATION TRAINER'S EDUCATIONAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF FORMING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE// INTERNATIONAL JOURNAL ON INTEGRATED EDUCATION Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
3. Imomova Shafoat Mahmudovna. TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA YANGICHA YONDASHUVLAR// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 14, 2023, C.1075-1081
4. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// NATURALISTA CAMPANO Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.